

N.Shodiyeva, TMI magistranti

## MILLIY IQTISODIYOT INVESTITSION MUHITIGA MOLIYA BOZORINING TA’SIRINI HUDUDLARDAGI XUSUSIYATLARI

Maqolada milliy iqtisodiyot investitsion muhitiga moliya bozorining ta’sirini hududlardagi xususiyatlari tadqiq etilgan bo’lib, hududlarda moliya bozorini rivojlantirish shart-sharoitlari va omillari tadqiq etilgan.

**Kalit so’zlar:** moliya bozori, investitsion muhiti, investitsion salohiyat, eksport salohiyati, investitsion jozibadorli, bozori infratuzilmasi.

В статье рассматривается влияние финансового рынка на инвестиционную среду национальной экономики, а также рассматриваются условия и факторы развития финансового рынка.

**Ключевые слова:** финансовый рынок, инвестиционная среда, инвестиционный потенциал, экспортный потенциал, инвестиционная привлекательность, рыночная инфраструктура.

The article examines the impact of the financial market on the national economy's investment environment and examined the conditions and factors of the development of the financial market.

**Key words:** financial market, investment environment, investment potential, export potential, investment attractiveness, market infrastructure

Bugungi kunda jahon amaliyotida investitsion muhitni takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqish, barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash uchun faol investitsion siyosat yuritish va iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishga yo’naltirilgan qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi sharoitida har bir mamlakatning yuqori darajadagi raqobatbardoshligini ta’minlashini investitsiyalarga bilan bog’liqligini amaliyot natijalari asoslamoqda. Ushbu jihatlar milliy iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, investitsion salohiyatini oshirishning bozor imkoniyatlaridan samarali foydalanish, infratuzilmani shakllantirish, hududning faol imijini yaratishga qaratilgan investitsion muhitni shakllantirish strategiyalarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb iqtisodiy vazifalardan biri ekanligini aks ettiradi.

Iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilish, loyihalarni moliyalashtirishning samarali usullarini qo’llash, xalqaro moliya institutlari bilan bevosita aloqalarni o’rnatish, investitsiya faoliyatni moliyaviy ta’minlash jarayonlarida moliya bozorining rolini oshirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mamlakatimizda iqtisodiyotning real sektoriga yo’naltirilgan investitsiyalarni ko’paytirish va shu asosda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo’li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda moliya bozori alohida o’rin tutadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-sonli 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta


ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi[1], 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi[2] farmonlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlar milliy iqtisodiyot investitsion muhitiga moliya bozorining taʼsirini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini shakllantirishga xizmat qiladigan tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etadi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik holatini ifodalovchi asosiy koʻrsatkich, uning investitsion jozibadorligi hisoblanadi. Iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalar miqdori, uning dinamikasi mamlakatdagi iqtisodiy oʻsish surʼatlarini belgilovchi asosiy omil sifatida investitsiya resurslari manbalarini shakllantirish va uning barqarorligini hududiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida eʼtirof etish mumkin.

Investitsiyalar hudud rivojlanishidagi asosiy omil sifatida qaralishini inobatga olganda, hududlarda investitsion muhitni shakllantirish, investitsion jozibadorlikni oshirishda samarali marketing strategiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy kapitalning asosiy qismi birlamchi tarmoqlarga jalb qilinayotganligi xorijiy investitsiyalarining oʻsish surʼati oʻrtacha respublika darajasidan pastligicha qolishiga sabab boʻlmoqda.

Mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo, farmatsevtika kabi yuqori qoʻshilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga esa xorijiy investitsiyalar deyarli kiritilmagan. Hududlarga investitsiyalarni jalb etish ayniqsa, xorijiy investorlarning toʻgʻridan-toʻgʻri kapital qoʻyilmalarini koʻpaytirish boʻyicha marketing asosnomalari toʻgʻri belgilanmagan. Investitsiyalarning marketing asosnomalari yetarli talablarga nomuvofiqligi natijalari, jalb etilgan investitsiyalarning rejalashtirilayotgan samarani olib kelmagan.



**1-rasm. Investitsiyalarning hudud iqtisodiyotini rivojlantirishga taʼsirini baholash modeli.**

Tanlab olingan indikatorlar tizimi 5 ta yoʻnalish boʻyicha belgilangan omillarga koʻra baholab chiqiladi, bular:

1. Makroiqtisodiy koʻrsatkichlarning muvozanatlilik bahosi –  $u_1$ .
2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash darajasi indikatorlari –  $u_2$ .
3. Raqobat muhitini rivojlantirish indeksi –  $u_3$ .
4. Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish indikatorlari –  $u_4$ .
5. Hududarning ijtimoiy rivojlanish holati indikatorlari –  $u_5$ .

Belgilangan omillar boʻyicha marketing muhitini baholish boʻyicha taklif etilgan (1) formula asosiy hisoblanib olindi.

$$Mn=0,29y_1+0,17y_2+0,2y_3+0,17y_4+0,17y_5$$

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining obʻektiv jarayonlari marketing klassik kontseptsiyasining izchil rivojlanishini talab etadi. Shunday kelib chiqqan holda muallif tomonidan hududiy rivojlanish yoʻnalishlaridan biri investitsion marketing kontseptsiyasi hisoblanadi.

Hudud investitsion jozibadorligini belgilovchi bosh koʻrsatkich, hududning marketing muhiti hisoblanadi. Hududarda shakllangan marketing muhitini ifodalab beruvchi asosiy koʻrsatkichlar sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 20 apreldagi Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ishbilarmonlik muhitining holati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasi indikatorlarini har chorakda baholash tizimi boʻyicha tanlangan omillarga koʻra baholash amaliyoti takomillashtirildi.

Investitsion marketing kontseptsiyasi shakllanishida ikki asosiy yondashuv mavjud:

- birinchidan, korxonalarining marketing xarajatlari darajasi oshishi va ularning marketing dasturini amalga oshirishdagi murakkab vazifalar hisoblanuvchi investitsion qoʻyilmalar xususiyatlarining natijaviyligini asoslash zarurligi bilan bogʻliq;

- ikkinchidan, investitsion marketing korxonalar strategiyalarini amalga oshirish jarayonlaridagi taktik maqsadlarni asoslash, bozorni rivojlantirishning oʻziga xos tomonlarini belgilash jarayonlari bilan bogʻliq.

Muayyan hudud investitsion jozibadorligini oshirish boʻyicha uning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda benchmarking metodikasidan tahlilni amalga oshirish vositasi sifatida foydalanish mumkin. Uning yordamida boshqa hududlar qaysi yoʻnalishlarda yaxshiroq va muvaffaqiyatliroq ishlarni amalga oshirayotganini aniqlash mumkin boʻladi va keyin ularning bu boradagi ilgʻor tajribasini oʻz hududingizga joriy etish talab etiladi. Tadqiqotimiz doirasida hudud iqtisodiyotining raqobatdoshligi va investitsion jozibadorligini oshirish omillari benchmarkingi qiziqtiradi va uni bir necha bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1) investitsiyalarni, xususan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida raqobatlashuvchi muvaffaqiyatli hududlarni tanlab olish, bunda hududlarning nisbatan yaqin joylashganligi tamoyili hisobga olinishi maqsadga muvofiq;

2) tanlab olingan hududlar boʻyicha hududlarning investitsion jozibadorligi omillarini tanlab olish;

3) maʼlumotlarni qidirish, jamlash va qayta ishlash;

4) maʼlumotlarni tahlil qilish va tanlab olingan omillar asosida hudud raqobatdoshligi va investitsion jozibadorligi radarini tuzish;

5) olingan maʼlumotlardan oʻz koʻrsatkichlaringizni yaxshilash va tavsiyalar ishlab chiqish uchun foydalanish.

Tadqiqotimiz davomida koʻrib chiqilgan barcha omillar ichidan tadqiqotimiz uchun nisbatan muhim va ahamiyatli deb topilgan quyidagi omillarni tanlab oldik, yaʼni “qattiq omillar”:

1) geografik joylashuv;

2) tabiiy resurslar;

3) xizmatlar bozori infratuzilmasi;

4) hudud boshqaruv organlarining TTXI jalb qilishga qiziqishi va rasmiylashtirish jarayonlari;

5) ishbilarmonlik muhiti va biznesni yuritish imkoniyatlari;

6) taqdim etilayotgan xizmatlarning hajmi va sifati.

Investitsion jozibadorlikning shakllanishi koʻp jihatdan puxta oʻylangan davlat investitsion siyosatiga bogʻliq boʻlib, uning bosh maqsadlari sifatida qulay investitsion muhitni yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni ragʻbatlantirish va istiqbolli innovatsion loyihalarni investitsiyalashning yangi shakllarini qidirib topish kabilar qaralishi zarur.

Shu bilan birga, davlatning ushbu jarayonni tartibga solish borasidagi harakatlari qulay investitsion muhitni yaratish va davlatning oʻz investitsion faoliyatini jadallashtirish, samaradorligini oshirish yoʻnalishida amalga oshirilishi zarur deb hisoblaymiz. Davlatning bu boradagi faoliyati yaqin oʻzaro bogʻliqlikda amalga oshirilishi kerak, davlat aralashuvi vositalari esa bir-birini toʻldirishi zarur. Bundan tashqari, investitsion infratuzilmani yuzaga keltirmasdan va investorlar qiziqishini oshirish uchun davlat tijorat kafolatlarini taqdim etmasdan turib investorlarni muvaffaqiyatli jalb qilib boʻlmaydi. Fikrimizcha, bu xulosalar mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish va rivojlanishning yangi bosqichiga chiqish jarayonida ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Respublikamiz hududlariga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, jami investitsiyalar tarkibida mamlakat hududlarining ulushi notekis taqsimlangan. Jumladan, 2016 yil maʼlumotlariga koʻra, Buxoro viloyati, Qashqadaryo viloyati va Toshkent shahri hissasiga jami investitsiyalarning 46,3 foizi toʻgʻri kelsa, Jizzax, Sirdaryo, Xorazm, Surxondaryo va Andijon viloyatlarining ulushi nisbatan pastligini koʻrishimiz mumkin. Bu koʻrsatkichning salmogʻini aniqroq tasavvur qilish uchun, past koʻrsatkichga ega yuqoridagi 4 hududning jami investitsiyalardagi ulushi 11,9 foizni tashkil qilsa, eng katta salmoqqa ega Toshkent shahri 20,5 foiz ulushga ega.

2017 yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy investitsiyalar va kreditlarning oʻsish surʼatlari yuqori boʻlib, 2016 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 18,2 foizga koʻpaygan, bu albatta Qandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlash zavodini qurish loyihasining bajarilishi bilan bogʻliq.

2017 yilning yanvar-dekabr oylarida jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 61,0 foizi Toshkent shahri, Buxoro, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari tomonidan oʻzlashtirildi (mos ravishda jami investitsiyalarning 19,0 foiz, 18,1 foiz, 16,8 foiz va 7,1 foiz miqdori) Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatlarida yuqori investitsion faollik kuzatildi.


Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori oʻsish suratlari kuzatilgan hududlarni koʻradigan boʻlsak: Buxoro viloyatida 151,7 foiz (11 008,9 mlrd. soʻm), Qashqadaryo viloyadida 123,5 foiz (10181,9 mlrd. soʻm), Surxondaryo viloyadida 138,5 foiz (2949,1 mlrd. soʻm), Toshkent shahrida 103,7 foiz (11525,9 mlrd. soʻm) oʻsish surʼatlari kuzatildi.

Toshkent, Fargʻona, Navoiy viloyatlari hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi 2016 yilga nisbatan 3,6 – 50,9 foizga kamaydi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 22,1 foizdan 26,9 foizga koʻpaydi, 2016 yilga nisbatan 4,8 foizga oshdi, mos ravishda: Buxoro viloyatida 75,0 foiz (20,7 foiz), Namangan viloyatida 35,7 foiz (10,7 foiz), surxondaryo viloyatida 17,4 foiz (6,5 foiz), Xorazm viloyatida 11,8 foiz (5,2 foiz) hamda Toshkent shahrida 18,8 foizini (2,4 foiz) xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil etgan. Shu bilan birga, quyida keltirilgan hududlarda xorijiy investitsiya va kreditlarning pasayishi kuzatilingan: Qoraqalpogʻiston Respublikasida 12,0 foiz (33,7 foiz), Qashqadaryo viloyatida 19,2 foiz (9,5 foiz), Sirdaryo viloyatida 5,7 foiz (2,6 foiz), Fargʻona viloyatida 8,1 foiz (2,7 foiz) tashkil etdi[3].

2018 yilning yanvar-dekabrida jami asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yaʼni 66,7 foiz i Respublikaning oltita hududida, jumladan, Toshkent shahrida – 20,4 foiz, Qashqadaryo viloyatida – 14,3 foiz, Navoiy viloyatida – 9,4 foiz, Toshkent viloyatida – 8,7 foiz, Buxoro viloyatida – 7,3foiz va Namangan viloyatida – 6,6foiz oʻzlashtirildi.





**2-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalarning oʻsish surʼatlari[3].**

Qator hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori oʻsish surʼatlari kuzatildi, jumladan, Navoiy viloyatida oʻtgan yilga nisbatan 184,6 foiz (asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 10059,1 mlrd. soʻm), Namangan viloyatida – 171,2 foiz (7131,0 mlrd. soʻm), Qoraqalpogʻiston Respublikasida – 162,2 foiz (6046,4 mlrd. soʻm), Jizzax viloyatida – 155,9 foiz (3169,2 mlrd. soʻm), Surxandaryo viloyatida – 149,5 foiz (6111,0 mlrd. soʻm), Fargʻona viloyatida – 146,6 foiz (4978,4 mlrd. soʻm), Toshkent viloyatida – 123,7 foiz (9351,4 mlrd. soʻm), Xorazm viloyatida – 122,8 foiz (2980,0 mlrd. soʻm), va Toshkent shahrida – 114,7 foiz (21861,5 mlrd. soʻm)[3].

Hozirda mamlakatimiz hududlarining rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatayotgan asosiy toʻsiqlardan biri – hudud iqtisodiyoti real sektoriga kiritilayotgan investitsiyalarning yetarli emasligidir. Hududlar investitsion siyosatini ishlab chiqishda ularning investitsion jozibadorligi asos boʻlib xizmat qiladi. Taʼkidlash kerakki, bugungi kunda respublikamiz hududlarining investitsion jozibadorligi etarlicha past boʻlib hisoblanadi.

Investitsion jozibadorlikka ijobiy taʼsir koʻrsatuvchi koʻrsatkichlarni oʻzida ifodalovchi 1-4 guruhlardagi reyting baholash natijalarini hududlarning kompleks koʻrsatkichlarini pasayib borish tartibida joylashtiramiz. Birinchi oʻrin kompleks koʻrsatkichning eng yuqori qiymatiga ega hududga beriladi. Investitsion jozibadorlikka salbiy taʼsir koʻrsatuvchi koʻrsatkichlarni ifodalovchi 5-guruh reyting baholash natijalari hududlarning kompleks koʻrsatkichlari qiymatini oʻsib borish tartibida joylashtiramiz. Birinchi oʻrin kompleks koʻrsatkichning eng past qiymatiga ega hududga beriladi. Taklif etilayotgan hududlar investitsion

jozibadorligini baholash metodikasi bir qator oʻziga xosliklarga ega boʻlib, xususan, tizimlar nazariyasining tartiblaridan foydalanilgan, yaʼni elementlar xilma-xilligining zarurligi, minimal yetarlilik va ularning maqsadga yoʻnaltirilganligi tamoyillari hisobga olingan. Ushbu holat metodikaga bir qator ustuvorliklarni beradi va salohiyatli investor uchun foydali vositaga aylantiradi: – maʼlumotlarni topishning osonligi – hudud investitsion jozibadorligini integral va reyting baholash statistik maʼlumotlar asosida amalga oshiriladi, ushbu maʼlumotlar hududlarning yillik statistik toʻplamlarida chop etiladi;

– maʼlumotlarning ortiqcha emasligi va toʻliqligi – hudud investitsion jozibadorligining turli jabhalarini tavsiflash uchun atiga ellikta boshlangʻich statistik koʻrsatkichlardan foydalaniladi: hudud iqtisodiy salohiyati, hudud ishlab chiqarish samaradorligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi, isteʼmol darajasi va turmush sifati, investitsion risk;

– reyting baholashi qiyosiy (solishtirma) hisoblanadi: u barcha tadqiq etilayotgan hududlarning haqiqiy erishgan natijalarini hisobga oladi, hudud investitsion jozibadorligi koʻrsatkichlari nisbiy qiymatlarini olishda hisob-kitob asosi sifatida ekspertlarning subʼektiv taxmin va xulosalari emas, balki tadqiq etilayotgan obʼektlarda olingan nisbatan aniq natijalardan foydalaniladi;

– ushbu metodikada hisoblash algoritmidan foydalaniladi, xususan hudud investitsion jozibadorligini qiyosiy kompleks baholashning matematik modelidan foydalanish imkoni yuzaga keladi;

– ushbu metodika yordamida hisoblangan investitsion jozibadorlikning xususiy, kompleks va integral koʻrsatkichlari qiymatlari noldan birgacha boʻlgan oraliqda joylashgan va bu hududlarni qiyosiy tahlilini amalga oshirishni sezilarli darajada osonlashtiradi hamda investitsion jozibadorlikni oshirishning zaxiralarini aniqlash imkonini beradi, xususan, nafaqat reyting baholashning ortda qolayotgan hududlarida, balki, eng yuqori oʻrinlarda joylashgan hududlar uchun ham. Misol uchun, tadqiqotlarimiz davomida aniqlangan maʼlumotlarga asoslanib, reytingda 0,75 baho bilan yetakchi oʻrinni egallayotgan Toshkent shahri quyidagi koʻrsatkichlar boʻyicha past qiymatlarga ega (investitsion risk koʻrsatkichlarida esa yuqori qiymatlarga) va ushbu yoʻnalishlarda ishlarni yaxshilash tavsiya etiladi: X1.9 - jami investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiyalarning salmogʻi (0,28), X2.5 - canoat mahsulotlari ishlab chiqarishning oʻtgan yilga nisbatan oʻsishi indeksi (0,20), X4.12 - har 10000 aholiga toʻgʻri keluvchi madaniyat va aholi dam olish markazlari (0,35), X5.3 - aholining kasalliklarga chalinishi darajasi, har 1000 kishiga (1,0), X5.4 - goʻdaklar oʻlimi koeffitsienti (1,0), X5.6 - bir yil davomida tugatilgan korxona va tashkilotlar soni (1,0), X5.7 - 100000 aholiga toʻgʻri keladigan roʻyxatga olingan jinoyatlar soni (1,0), X5.8 - 100000 aholiga toʻgʻri keluvchi yoʻl transport hodisalarida halok boʻlganlar soni (1,0). Hudud investitsion jozibadorligini baholashning taklif etilayotgan metodikadan amaliyotda foydalanish bir tomondan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga hudud xoʻjalik faoliyatidagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va ushbu kamchiliklarni bartaraf etish boʻyicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda natijada investitsion resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini yaxshilasa, boshqa tomondan esa, ushbu

metodika asosida amalga oshirilgan hududlar investitsion jozibadorligining tahlili natijalari har bir strategik investorga uning qiziqishlarini (xohish-istaklarini) inobatga olgan holda unga maqbul keladigan investitsiyalash ob’ektini tanlash imkonini beradi.

Bozor munosabatlari rivojlanayotgan bugungi kunda investorning oʻz mulkini faqat korxonaning muomalaviy faoliyatiga emas, shuningdek investitsiya faoliyatiga ham yoʻnaltirilganligi, oxir-oqibatda, investor olayotgan daromadning oshishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda investor mulkini qaysi faoliyatga biriktirishi ham muhim masalalar qatoriga kiradi. Jumladan, investor mulki tarkibida boʻlgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa mulklari investitsiya jarayonlariga koʻproq jalb qilinsa, uning oladigan daromadi yanada oshishi mumkin. Investitsiya faoliyatining vositasi hisoblangan mulk barcha ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishlarda ishlab chiqarish munosabatlarining asosini tashkil etib, ularning xususiyatlarini belgilab beradi. Har bir ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishda mulkchilik turli xil ijtimoiy munosabatlarda rivojlangan boʻlib, mulkchilikni tavsiflanganda uning iqtisodiy mazmunini hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib, davlatdagi xorijiy investitsion muhitni, birinchi navbatda, toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar muhitini yanada rivojlantirishga moliya bozorining oʻrnini quyidagilar orqali namoyon boʻladi:

- soliq qonunchiligini soddalashtirish va ishlab chiqarishni ragʻbatlantirish maqsadida soliq tizimini takomillashtirish;
- chet ellik investorlar maqsadi, koʻzlangna manfaatlarini chuqur oʻrganib chiqish hamda tahlil etish orqali ularga yaratilgan qulay shart-sharoitlar va imtiyozlarni kengaytirish;
- investitsiyalarni joylashtirish, ulardan samarali foydalanish borasida investitsiya marketingini kengaytirish va rivojlantirish;
- xorijiy investorlarning baʼzi toifalariga yaratilgan imkoniyatlarni barcha chet el investorlari uchun umumiy qonun-qoidolari asosida belgilash;
- investorlarni mamlakat investitsiya muhitida ular uchun yaratilgan katta imtiyozlar va qulayliklar bilan keng tanishtirish, bu borada moliya bozorining oʻrni toʻgʻrisida ularni xabardor qilish.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida”gi PF-5635-sonli Farmoni

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi PF-4947-sonli Farmoni

3. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)- Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi rasmiy axborot sayti maʼlumotlari